

Maxsus Tibbiy Yordam Talab Qiluvchi Jiddiy Kasalliklar

14

BOB

Ushbu bobda aytilgan kasalliklarni tibbiy yordamsiz tuza-tish qiyin yoki umuman tuzatib bo'lmaydi. Bu kasalliklarga davo qilish uchun qishloq sharoitida topib bo'lmaydigan dorilar kerak. Uydagi davolash usullari ularni davolay olmaydi. Agar bemor ushbu boblardagi kasalliklardan biriga uchragan bo'lsa, QANCHA TEZ TIBBIY YORDAM OLSA, TUZALIB KETISHIGA IMKONIYAT SHUNCHA KO'P bo'ladi.

OGOH BO'LING: Boshqa boblarda aytilgan kasalliklar ham jiddiy bo'lishi va shifokor aralashuvini talab qilishi mumkin. Xavfli Kasalliklar belgilarga qarang, 118-bet.

SIL (TUBERKULYOZ)

O'pka sili surunkali (uzoq davom etadigan), yuqumli (oson tarqa-ladigan) kasallik bo'lib, har bir kishi u bilan kasallanishi mumkin. Lekin bu kasallik ko'pincha 15 yoshdan 35 yoshgacha bo'lgan, ayniqsa OITS (SPID) bilan og'riyotgan (734-bet) yoki quvvatsiz, ovqatga yo'lchimagan yoki sili bor odam bilan yashaydigan odamlarda ko'proq uchraydi.

Sil, davo qilinsa yo'q bo'lib ketadigan kasallik. Lekin har yili minglab odamlar shu kasallikdan bevaqt behuda o'lib ketyaptilar. Silning oldini olish hamda **davoni erta boshlash juda muhimdir.** Shuning uchun, siz silning belgilarini bilishingiz va ulardan ogoh bo'lib turishingiz zarur.

Ko'p uchraydigan sil belgilari:

- Surunkali yo'tal, ko'pincha u uyqudan tur-ganiningizdan so'ng zo'rayadi.
- Peshindan keyin biroz harorat ko'tariladi va odam kechasi terlaydi.
- Ko'kragi yoki belining teparog'ida og'riq bo'lishi mumkin.
- Odam ozib, quvvatsizlanib boradi.



Og'ir yoki o'tib ketgan hollarda:

- Odam yo'talib, qon tuflaydi (odatda biroz lekin ba'zi hollarda ko'p qon tuflaydi).
- Terining rangi o'zgarib mumday bo'lib qoladi. Qoramag'iz odamning terisi, ayniqsa, yuzlari oqaradi.
- Ovozi muntazam xirillaydi (bu juda jiddiy).

Yosh bolalarda, yo'tal kech paydo bo'lishi mumkin. Quyidagilarga qarang:

- Bir maromda ozib borishi.
- Tez-tez harorat ko'tarilishi.
- Teri rangining oqarishi. Bo'yin limfa tugunlarining shishib qolishi - yoki qorin shishishi.

Sil ko'pincha faqat o'pkada bo'ladi. Lekin u har qanday boshqa tana a'zolarida ham bo'lishi mumkin (351-bet). Yosh bolalarda sil meningitga sabab bo'lishi mumkin. Sildan teri muammolari kelib chiqishi xususida 397-betlarga qarang.

Agar sizda sil borligini taxmin qilsangiz. Silning birinchi belgilari dayoq sizda sil bor yoki yo'qligini aniqlash uchun teringizni, yo'talganiningizda chiqadigan narsa (balg'am)larni analiz qila oladigan, rentgenda o'pkani tekshirib ko'ra oladigan tibbiy markazga boring. Ko'p davlatlar ushbu xastalik uchun dorilarni bepul beradilar. Eng yaqin tibbiy markazdan ma'lumot so'rang. Sizga quyidagilardan 2, 3 yoki 4 ta beradilar. (685-692-betlarga qarang).

Hammabop Tibbiyat Qo'llanmasi 2013


- Izoniazid (Tubazid) tabletkalari (689- bet)
- Rifampitsin tabletkalari (690 bet)
- Pirazinamid tabletkalari (690 bet)
- Etambutol tabletkalari (691-bet)
- Streptomitsin ukollari (691-bet)
- Tioatsetazon tabletkalari (692-bet)

Tavsiya qilingan dorilarni muttasil ichib borish juda muhim. Kamida 2tasi bir mahalda ichilishi kerak. Davolash rejalarini tanlash va dorilarning xavfi va ularga qarshi ko'rildigan ehtiyyot choralarini xususida 455-460-bet-larga qarang. Dorilarni shifokor to'xtatgunga qadar qabul qiling. **O'zin-gizni yaxshiroq his qilganingizda ham dorilarni ichishni to'xtatmang.** Silni to'lá davolash uchun odatda 6 oydan boshlab 1 yilgacha va undan ham ko'proq vaqt ketadi. **Agar siz davolanishni 6 oyga bormasdan to'xtatsangiz, siz silning tuzatib bo'lmash turiga chalinishingiz mumkin.** Kasal odamga kimdir doim dorilarni vaqtida yetkazib, berib turishi kerak. Odatda bu hamshira bo'lib, u doim kelib bemorga dari beradi va undagi o'zgarishlarni yozib yuradi. Tibbiyat xodimining asosiy maqsadi bemorni dari ichishini nazorat qilish.

Iloji boricha yaxshi ovqatlaning: ko'p quvvat beruvchi ovqatlardan, shuningdek, oqsil va vitaminlarga boy ovqatlardan ko'proq iste'mol qiling (222-224- betgacha). Dam olish ham muhimdir. Agar iloji bo'lsa, ishlamang va o'zingizni yaxshiroq his qilguningizga qadar dam oling. Keyinchalik ham horib-toladigan yoki hansirab qoladigan darajada ishlamang. Doim yetarli darajada dam olib, uqlashga harakat qiling.

Tananing boshqa qismidagi sil ham o'pka siliga o'xshashdir. Bu esa bo'yin bezlari sili, qorin sili (90-betdagি rasm), teri sili (397-bet) va bo'g'imlar sili (masalan tizza) kabilarni o'z ichiga oladi. Umurtqa sili bilan og'ir kasal bo'lgan bolani falajdan saqlash uchun operasiya qilish kerak bo'lishi ham mumkin.

Sil juda yuqumlidir. Sil kasali bor odam bilan birga yashovchi odamlar (ayniqsa bolalar)da silni yuqtirish xavfi juda katta.



Agar oyda biror kishi sil bilan og'rigan bo'lsa:

- ◆ Iloji bo'lsa, **butun oilani silga qarshi tekshiring** (Sil analizi).
- ◆ Bolalarni silga qarshi BSJ bilan emlang.
- ◆ Hamma, ayniqsa bolalar to'yimli ovqatlarni iste'mol qilishlari kerak.
- ◆ Sili bor odam, bolalardan alohida uxlashi va ovqatlanishi kerak, iloji bo'lsa yo'tali yo'qolib ketgunga qadar boshqa xonada yotishi kerak.
- ◆ Shuningdek, kasal odamdan yo'talganda og'zini biror narsa bilan berkitishini va polga tuflamasligini iltimos qiling.

◆ **Oilaning boshqa a'zolarida vazn kamayishi va silning boshqa belgilari bor-yo'qligini tekshiring.** Iloji bo'lsa oila a'zolarining, ayniqsa bolalarning og'irligini, xavf yo'q bo'lgunga qadar, har oyda o'lchab turing.


Oila boshqa a'zolarida sil asta-sekin va zimdan boshlanadi. Agar biror kishida sil belgilari paydo bo'lsa, silga qarshi tekshirtiring va o'sha zahoti davolashni boshlang.

Erta va to'la davolash kasallikning oldini olishning kalitidir.

QUTURISH

Quturish odamni quturgan hayvonlar, chunonchi quturgan it, mushuk, tulki, bo'ri yoki chiyabo'ri kabilarning tishlashidan kelib chiqadi.

Ko'rshapalaklar va boshqa hayvonlar ham quturishni tarqatishi mumkin.



Quturishning belgilari:

Hayvonlarda:

- Juda bo'shashib, qimirlamay yotadi yoki g'alati harakatlar qilib juda jonsirak bo'lib qoladi.

Hammabop Tibbiyat Qo'llanmasi 2013

- Og'zidan ko'pik chiqib turadi, yeb-icha olmaydi,
- Ba'zan quturgan hayvonlar, yonidagi biror kimsani yoki biror narsani tishlab olishlari mumkin. (g'alati xarakatlar)
- Hayvon 5-7 kunda o'lib qoladi.

Odamlarda:

- Tishlangan joy og'riydi va qichishadi (jimirlaydi).
- Nafas maromi o'zgarib, hozirgina qattiq yig'lagan odamdek nafas oladi.
- Yutingani qiynaladi va og'riq sezadi. Ko'p quyuq, yopishqoq so'lak chiqaradi.
- Odam bunday ta'sirotdan qattiq qo'zg'aladigan, juda asabiy yoki juda ta'sirchan bo'lib qoladi. Achchig'idan titrab qolishi mumkin.
- O'lim yaqinlashgan sari, tutqanoqlar kuchayadi va odam falaj bo'lib qoladi.

Agar biror kimsani tishlagan hayvon quturganligini bilsangiz:

- Hayvonni bir haftaga bog'lab yoki qafasga qamab qo'ying.
- Tishlangan joynisovun, suv va vodorod peroksidi bilan tozalang. Jarohatni yopib qo'y mang, uni ochiq qoldiring.
- Agar hayvon bir hafta o'tmasdan o'lib qolsa (yoki o'ldirilsa, yoki ushlanmasa), tishlangan odamni quturishga qarshi kerakli ukollar qilinishi mumkin bo'lgan tibbiy markazga olib boring.

Quturishning birinchi belgilari, tishlangan kunining 10-kunidan tortib ikki yil davomida paydo bo'lishi mumkin (odatda 3,7 haftada). Davolashni birinchi belgilari paydo bo'lmasdan avvalroq boshlash kerak. Kasallik boshlangandan so'ng, ushbu odamning hayotini hech qaysi dori saqlab qololmaydi.

Oldini olish:

- ◆ Hayvoningizning quturganiga ishonsangiz, uni o'ldirib, jasadini yondiring (yoki bir haftaga qafasga qamab qo'ying).
- ◆ Itlarni emlash uchun maxsus shifo maskaniga olib boring.

- ♦ Ko'rinishi kasal yoki g'alati harakatlar qilayotgan har qanday hayvonlardan bolalaringizni uzoqroqda tuting.

Kasal yoki g'alati harakat qiluvchi har qanday hayvonga duch kelsangiz juda ehtiyot bo'ling. Hatto u hech kimni tishlamasa ham, kesilgan, shilingan joyga so'lagi tushganda, quturishni keltirib chiqarishi mumkin.

QOQSHOL

Qoqsholga jarohat orqali organizmga kirgan mikroblar sabab bo'ladi. Bu mikroblar hayvonlar yoki odamlar tanasida yashaydi. Shuning uchun, chuqur yoki ifloslangan yaralar, ayniqsa xaflidir.

QOQSHOLGA OLIB KELADIGAN JAROHATLAR

hayvonlar tishlagan joylar, ayniqsa,
it va cho'chqalar tishlagan joylar

o'q va pichoq
jarohatlari

iflos igna bilan qilin-
gan teshiklar



Tikonli sim jarohatlari



tikonlar, zirapchalar yoki
mixlar sanchilishi tufayli kelib
chiqqan jarohatlar




Hammabop Tibbiyat Qo'llanmasi 2013

YANGI TUG'ILGAN CHAQALOQDAGI QOQSHOL SABABCHILARI:

Qoqshol mikroblari chaqaloq ichiga uning kindik tizimchasi orqali, tozalikka yoki oddiy ehtiyyot choralariga rioya qilinmaganda kirishi mumkin. Qoqshol bilan kasallanish xavfi ortadi agar...

- kindik tizimchasi qaynatilmagan yoki toza tutilmagan narsa bilan kesilsa yoki
- kindik tizimchasi tanaga **yaqin** joydan kesilmasa (480-bet)
- yangi kesilgan kindik qattiq bog'lab qo'yilmasa yoki quruq saqlanmasa.


KINDIK TIZIMCHASI TANADAN KO'RSATILGANDEK UZOQLIKDA KESILGANDA QOQSHOL XAVFI KUCHLIDIR.



Qoqshol belgilari:

- Infeksiyalangan jarohat bo'lishi (ba'zan hech qanday jarohat topilmasligi ham mumkin).
- Yutinishdagi qiyinchilik va noqulayliklar.
- Jag' qotib qoladi, so'ng bo'yin muskullari va tananing boshqa muskullari qotishni boshlaydi. Kasal odam normal yurishga qiynaladi.
- Jag'ning birdan qotadi, butun tana tirishishib og'riydi (birdan qotib qoladi). So'ng kasalni o'rnidan siljitsangiz unda tirishtirib qo'yadigan (spazmatik) og'riqlar kelib chiqishi mumkin

Birdan eshitilgan shovqin yoki ravshan yorug'lik ham bunday spazmlarga olib kelishi mumkin.



Chaqaloqlarda, qoqsholning birinchi belgilari odatda tug'ruqdan keyin 3-10 kun bo'lganda paydo bo'ladi. Bola doim yig'laydi va **ema olmaydi**. Ko'pincha kindik atroflari ifloslangan yoki infeksiyalangan bo'ladi. Bir necha soat yoki kundan so'ng jag' qotishi va qoqsholning boshqa belgilari paydo bo'la boshlaydi.

Qoqsholning birinchi belgilaridanoq davolashni boshlash juda muhimdir. Agar qoqshol bor deb gumon qilsangiz (yoki yangi tug'ilgan chaqaloq to'xtamay yig'lasa yoki emmay qo'ysa), quyidagi tekshiruvlarni bajaring:

TIZZA REFLEKSLARINI TEKSHIRISH

Bo'sh osilib turgan oyoq tizza qopqog'ining pastrog'iغا rezina bolg'acha bilan uring



Agar oyoq biroz ko'tarilsa, reaksiya normal bo'ladi.



Agar oyoq juda balandga ko'tarilsa, bu qoqshol singari jiddiy kasallikdan dalolat (meningit, biror zaharli dori yoki kalamush dorisi bilan zaharlanish bo'lishi ham mumkin).



Ushbu tekshiruv chaqaloqlarda qoqshol borligini gumon qilganingizda, ayniqsa, foydalidir.

Qoqshol belgilari bo'lsa nima qilish kerak:

Qoqshol o'limga olib boruvchi kasallik. Birinchi belgilardayloq tibbiy yordam kerak. Agar tibbiy yordam kechikayotgan bo'lsa, quyidagilarni qiling:

Butun tanani ko'zdan kechirib, infeksiyalangan yara va jarohatlar ni toping. Ko'pincha jarohat yiringlagan bo'ladi. Jarohatni oching va uni qaynatib, sovutilgan suv bilansovunlab yuving; ichidagi barcha kir, yiring, tikan, yarchalar va boshqa iflos narsalarni olib tashlang; agar iloji bo'lsa, vodorod peroksidi bilan yuving.

Qoqshol belgilari bo'lsa nima qilish kerak:

- ◆ Benzilpenitsillin Prokaindan 4 million ED. miqdorida darhol uqol qiling va har 6 soatda qaytarib turing (632-bet). (Yangi tug'ilgan chaqaloqlarga Benzilpenitsillin yaxshiroq.) Agar penitsillin bo'lmasa, tetratsiklin guruhidan boshqa antibiotik ishlating.

- ◆ Agar topa olsangiz odam **Immunoglobulinidan** yoki 40.000 dan 50.000 ED. gacha miqdorda **Qoqshol Antitoksinidan** ukol qiling. Ehtiyyot choralariga riosa qilishni unutmang (159- va 652-betlar). Odam Immuno-

Hammabop Tibbiyat Qo'llanmasi 2013

globulining allergik reaksiya berish xavfi kamroq, lekin u qimmatroq turadi va uni topish qiyin bo'lishi mumkin.

◆ Kasal yuta olsa, unga quvvat bo'ladigan suyuqliklar (sut, sho'rva, shakar choy va hokazo)dan kichik ho'plamlarda ko'proq bering.

◆ Tutqanoqlarni to'xtatish uchun, Fenobarbital (dozalar uchun 669-bet) yoki Diazepam (Relanium, 669-bet) bering, kattalar uchun: 10-20 mg. dan boshlang va kerak bo'lsa miqdorini ko'paytiring.

◆ Kasalni iloji boricha kamroq siljiting va unga tegmang. Shovqin va ravshan yorug'likdan uni ehtiyyot qiling.

◆ Agar kerak bo'lib qolsa, burun va tomoqdagagi shilimshiqlarni uchiga shprits ulangan kateter (rezina naycha) bilan tortib oling. Bu havo yo'llarini tozalashga yordam beradi.

◆ Yangi tug'ilgan chaqaloq qoqshol bo'lib qolsa, tibbiyat xodimi burredan qoringa nay (zond) solib, bolani ona suti bilan boqsin. Bu ovqatga yolchimaslikning oldini oladi va infeksiyaga qarshi kurashadi.

QANDAY QILIB QOQSHOLNING OLDINI OLISH KERAK

Qoqsholning oldini olish:

Koqshol bilan og'riganlar eng yaxshi shifoxonlarda davolanganida ham ularning yarmi nobud bo'ladi. Qoqsholning oldini olish uni davolashdan ancha oson.

◆ Emlash: Bu qoqsholga qarshi eng ishonchli himoyadir. Kattalar ham bolalar ham emlanishi kerak. Butun oilangizni eng yaqin tibbiyot maskanida emlating (273-bet). To'liq himoyalanish uchun emlash har 10 yilda qaytarib turilishi kerak. **Homilador ayol har gal homilali bo'lganida qoqsholga qarshi emlansa, yangi tug'ilgan bolani ham himoyalagan bo'ladi.**

◆ Agar biror joyingiz jarohatlansa, ayniqsa, bu jarohat kir yoki chuqur bo'lsa, uni 180-betda aytilgandek qilib tozalang va davolang.

◆ Agar jarohatingiz juda katta, chuqur yoki iflos bo'lsa, tibbiy yordamga murojaat qiling. Agar siz qoqsholga qarshi emlanmagan bo'lsangiz, penitsillin ishlating. Shuningdek, qoqshol antitoksinini (652-bet) topib qo'ying.

◆ Yangi tug'ilgan chaqaloqlarda, qoqsholning oldini olishda toza-likka rioya qilish juda muhimdir. Kindik tizimchasini kesish uchun ishlatiladigan asbob steril bo'lishi kerak (480-bet); tizimcha qisqa qilib kesilishi hamda kindik atrofi toza va quruq bo'lishi kerak.

USHBU BOLANING KINDIK TIZIMCHASI
QISQA KESILGAN, TOZA SAQLANGAN VA
OCHIQ QOLDIRILGAN.



U SOG'LOM

USHBU BOLANING KINDIK TIZIMCHASI
UZUN QILIB QOLDIRILGAN, QATTIQ
O'RAB QO'YILGAN VA QURUQ
SAQLANMAGAN



U QOQSHOLDAN NOBUD BO'LGAN

MENINGIT

Bu juda jiddiy bosh miya infeksiyasi bo'lib, u bolalarda ko'proq uchraydi. U qizamiq, tepki, ko'kyo'tal yoki qulq infeksiyasi kabi boshqa kasalliklardan kelib chiquvchi kasallik sifatida boshlanishi mumkin. Sil kasaliga uchragan onalarning bolalari, hayotining birinchi oylaridayoq sil meningiti bilan ogrib qolishi ehtimoli bor.

Belgilari:

- Isitma.
- Qattiq bosh og'rig'i.
- Bo'yin qotishi. Bolaning qattiq kasalligi ko'rinishidan bilinib turadi va u boshini mana bunday biroz orqaga egib yotadi.
- Bel shunchalik qattiq-ki, bola boshini ikki tizzasi orasiga qo'ya olmaydi.
- 1 yoshga to'limgan bolalarda: liqildoq (chaqaloq boshining tepe sidagi yumshoq joy) bo'rtib chiqib qoladi.
- Bola qayt qilib turadi.
- Yosh bolalar va chaqaloqlarda meningit boshlanganini bilish qiyin. Ona ko'kragini berganda ham, bola g'alati yig'lashi mumkin - "meningit yig'i". Yoki bola juda uyquchi bo'lib qolishi mumkin.
- Ba'zan tutqanoqlar yoki g'alati harakatlar ham kuzatiladi.
- Bola ahvoli tobora yomonlasha boradi va u hushidan ketganga o'xshab jim bo'lib qoladi.
- Sil meningiti asta sekin kunlab yoki haftalab avj olib boradi, lekin bazi hillari tez, bir necha soat yoki kunda avj olib ketadi.



Hammabop Tibbiyat Qo'llanmasi 2013

Davolash:

Tez tibbiy yordam oling - har bir daqiqa g'animat! Agar iloji bo'lsa, kasalni shifoxonaga olib boring. Unga qadar esa:

Ampitsillin yoki penitsillining o'zi hozirgi kunga kelib meningitni keltirib chiqaruvchi mikroblarga ta'sir qilmaydi. Meningitlar xavfli bo'lgani uchun Ampitsillin va Klaforan (Sefotaksim)larni ishlating (qimmat bo'lsa ham).

- Agar Klofaran topa olmasangiz, Xloramfenikol (Levomitsetin) ishlatishingiz mumkin (639-bet).
 - Ampitsillinni har 4 soatda 500 mg. dan va sefotaksim (Klaforan) har 6 soatda tegishli miqdorda ukol qilib turiladi. (Sefotaksim miqdori yosh bolalarga 500-1000 mg., kattalarga 1-2 g. dan har 6 soatda, chaqaloqlarga esa 250 mg. har 8 soatda qilinadi.)
 - Agar harorati juda yuqori (40°S dan oshiq) bo'lsa, bemor badanini namlangan sochiq bilan artish unga paratsetamol yoki aspirin berish yo'li bilan haroratni pastlating (649-650-betlar).
 - Agar onasida sil bo'lsa yoki siz bolada sil meningiti bor deb gu'mon qilsangiz, Streptomitsindan bola vaznining har bir kilosi uchun 20 mg. dan yuqoridagi dorilarga qo'shib 1 mahal ukol qiling va o'sha zahoti tibbiy yordam oling.
- Sildan aloqasi yo'q meningitlarda ham ampitsillin va klaforan ishlating.

Oldini olish:

Sil meningitining oldini olish uchun sil bilan og'rigan onaning ch-aqalog'i tug'ilishi bilanoq BSJ bilan emlanishi kerak. Yangi tug'ilgan ch-aqaloqlar dozasi 0.05 ml. (0.1 ml. li oddatdagi miqdorning yarimi). Silning oldini olish to'g'risidagi boshqa maslahatlar xususida 342-343-betlarga qarang.


BEZGAK

Bezgak O'zbekiston uchun xos kasallik emas. Lekin u Hindistonda bor. Bezgak qondagi infeksiya bo'lib, et uvishib, qaltirash va harorat ko'tarilib, isitma chiqishiga sabab bo'ladi. Bezgakni chivinlar tarqatadi. Chivin kasal odam qonidagi bezgak parazitlarini so'rib oladi va boshqa odamni chaqqanda ularni shu odamga yuqtiradi.

Bezgak belgilari:

- Oddatdagagi bezgak xuruji 3 bosqichdan iborat:

- U et uvishib sovqotish bilan boshlanadi, bunda ko'pincha bosh ham og'riydi. Odam 15 minutdan 1 soat- gacha sovqotadi va titrab-qaqshaydi.
- Qaltirashdan so'ng isitma chiqib, harorat 40°S gacha yoki undan ham yuqori ko'tariladi. Odam juda, qizarib ketadi va vaqt vaqt bilan alahlaydi (o'zini bilmay qoladi). Isitmasi bir necha soat yoki kun davom etadi.
- Oxiri, kasal terlay boshlaysidi va uning isitmasi pasayadi. Xuruj o'tib ketgandan so'ng kasal o'zini ancha behol, lekin har qalay yaxshiroq his qiladi.



- Odatda bezgakda isitma kasallikning turiga qarab, har 2 yoki 3 kunda ko'tarilib turadi (bezgak turiga bog'liq), lekin boshida har kuni harorat ko'tarilishi mumkin. Shuningdek, isitma doimiy va oddatdagicha bo'lmasligi ham mumkin. Shuning uchun har kim kutilmagan isitmadan azob cheksa, qonini bezgak bor-yo'qligini aniqlash uchun tekshirtirishi kerak.

- Surunkali bezgak - qorataloqning kattalashuvi va kamqonlikka olib keladi (242-243-betlar).

- Yosh bolalarda kamqonlik va rang o'chishi bir-ikki kunda namoyon bo'ladi. Miyaga ta'sir qiluvchi bezgak bilan og'rurvchi bolalarda kasallik talvasaga tushish, xushdan ketish singari hodisalar bilan birga davom etishi mumkin. Shuningdek, bola kafti ko'karib zahil tortishi, o'zi xansirab turishi ham mumkin. (*Eslatma.* Emizilmaydigan bolalar bezgakka moyilroqdir.)

Analizlar va davolash:

- Agar siz bezgak borligini taxmin qilsangiz yoki qaytarilib turuvchi isitmalaringiz bo'lsa, qonni tekshirtirish uchun tibbiy markazga boring.

BEZGAKDAN QANDAY SAQALANMOQ KERAK

Bezgak ko'pincha issiq, yomg'irli davrlarda paydo bo'ladi. Agar hamma bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilsa, uni yo'qotish mumkin. Ushbu ehtiyyot choralar darhol ko'riliishi kerak.

1. Chivinlardan o'zingizni saqlang.

Chivinlar yo'q
joyda yoki
pashshaxonada
uxlang. Bola
belanchagini
ustini chivin
kirolmaydigan
to'ri yoki yupqa



material bilan qoplang. Agar hashoratlarga
qarshi dori bilan namlangan pashshaxona
bo'lsa, yanada yaxshi.

2. Sanitariya va epidemiologiya

xodimlari kelganda ular bilan
hamkorlik qiling.
Oilangizda
isitmalagan
odam borligini
ayting va
analiz uchun qon
olishiga ruxsat bering.




3. Agar sizda bezgak

borligini taxmin
qilsangiz tez
davolanishni
boslang. Siz
davolanib
tuzallib ketganingizdan keyin, boshqalar
sizdan yuqtirmaydilar.




4. Chivin va ularning bolalari (tuxumlari)ni

o'ldiring. Chivinlar oqmaydigan suvlarda
ko'payadi. Suv to'planadigan ko'l, chuqur,
eski o'rabi suv to'planadigan joylarni
yo'qoting. Chivinlar
ko'payayotgan joy,
ko'lmaq yoki botqoqlarni quriting.



BRUTSELLYOZ

Ushbu kasallik infeksiyalangan mol yoki echkining suti qaynatmay ichilganidan kelib chiqadi. U infeksiya kasal mol, echki kabi hayvonlarni boquvchi odamning jarohatlangan yoki shilingan terisi orqali uning organizmiga kirishi yoki havo orqali uning o'pkasiga tushishi ham mumkin.



BRUTSELLYOZNING OLDINI
OLISH UCHUN: QAYNATILMA-
GAN SUTNI HECH QACHON
ICHMANG.

Belgilari:

- Brutsellyoz et uvishib, isitma chiqishi bilan boshlanishi mumkin, lekin u ko'pincha charchash, tobora xolsizlanish, ishtaha pasayishi, bosh, oshqozon va ba'zan bo'g'imlarning og'rishi bilan asta-sekin boshlanadi.
 - Isitma har-xil: uncha baland emas yoki juda yuqori bo'lishi mumkin. Odatda, bu isitmalar peshin vaqtida et uvishib, sovqotish bilan boshlanib, saharda terlash bilan tugaydi. Surunkali brutsellyozda, isitma bir necha kun to'xtashi, pasayishi, so'ng yana paydo bo'lishi mumkin. Davolanmasa, brutsellyoz bir necha yil davom etishi mumkin.
 - Bo'yin, qo'ltiq va chov (186-bet) limfa tugunlari shishishi mumkin.

Davolash:

- Agar sizda brutsellyoz borligini taxmin qilsangiz, tibbiy maslahat oling, chunki bu kasallikni boshqalari bilan adashtirish oson va davolash ham uzoqqa cho'zilib, qimmatga tushadi.
 - Doksitsiklin + Gentamitsin bilan davolang. Kattalarga: 100 mg. li Doksitsiklin kapsulalaridan 2 mahal berib boring, u bilan birga 3 hafta mobaynida gentamitsin ham bering yoki Sulfametoksazol + Trimetoprim (Biseptol, T-iseptol) tabletkalari va gentamitsin ishlating. **Bolalarga:** Biseptol va Gentamitsin bering.

Oldini olish:

- **Mol yoki echki sutini faqat qaynatilganini (yoki pasterlanganini) iching.** Brutsellyoz muammosi bo'lgan joyda, qaynatilmagan sutdan qilingan pishloqni ham yemang.
 - Mol, echki, qo'ylarga qarayotgan odamlarda, biror kesilgan yoki tirnalgan joyi bo'lsa, juda ehtiyyot bo'lishlari kerak.
 - Hayvonlar kasalligini tekshuruvchi veterinar shifokorlar bilan hamkorlikda ish tuting.

ICH TERLAMA (TIFOID)


Ich terlama butun tanaga ta'sir qiluvchi qorin kasalligidir. U infeksiyalangan ovqat va suv orqali yuqadi va ko'pincha epidemiya (ko'p odamlarning birdaniga kasal bo'lishi)ga aylanib ketadi. „Isitma” (96-bet) deb ataluvchi boshqa kasalliklar ichida ich terlama eng xavflisidir.

Hammabop Tibbiyot Qo'llanmasi 2013

Ich terlama belgilari:

Birinchi haftada:

- Shamollash yoki grippga o'xshab boshlanadi.
- Bosh og'rig'i, tomoq og'rig'i va ko'pincha quruq yo'tal bo'ladi.
- Isitma ko'tarilib, pasayib turadi, lekin har kuni 40° S yoki undan ortiq ko'tarilguncha birozdan ko'tarilib boradi.
- **Isitma bo'lganda tomir urish iisitma bo'limgan paytdagiga nisbatan sekinlashishi mumkin.** Har yarim soatda puls va haroratni o'lchab turing. Agar puls, isitma chiqqanda yana ham sekinlashsa, bu odamda ich terlama borligining ehtimoli ko'proq (96-bet).
- Ba'zan odam qayt qilishi, ichi o'tishi yoki ichi qotishi mumkin.



Ikkinci hafta:

- Harorat yuqori, puls nisbatan sekinlashgan bo'ladi.
- Tanada bir-nechta pushti rang dog'lar paydo bo'lishi mumkin.
- Odamni qaltiroq bosib turadi.
- Alahsirash boshlanadi.
- Quvvatsizlik, vazn yo'qotish, suvsizlanish ko'rildi.

Uchinchi haftada:

- Agar hech qanday asoratlar bo'lmasa, belgilari va isitma sekin asta yo'qolib boradi.

Davolash:

- ◆ Tibbiy yordamga murojaat qiling.
- ◆ Levomitsetin ishlatalidi (639-bet, kattalar uchun: 250 mg. li 3 ta

kapsulani 4 mahal kamida 2 hafta berib boriladi). Siprofloksatsin (647-bet) yoki sefotaksim(646-bet) ham ishlatilishi mumkin.

- ◆ Isitmani pasaytirish uchun sovuq suvga ho'llangan sochiq bilan badanni arting (168-bet).
- ◆ Ko'p suyuqlik bering: sho'rvalar, sharbatlar va suv o'rnini bosuvchi ichimliklardan suvsizlanishning (283-bet) oldini olish uchun berib turing.
- ◆ Zarur bo'lса, suyuq holda to'yimli ovqatlardan bering,..
- ◆ Isitma butunlay yo'q bo'lib ketgunga qadar kasal yotishi kerak.
- ◆ Agar kasalning axlatida qon bo'lса, peritonit (196-bet) yoki zotiljam (315-bet) belgilari paydo bo'la boshlasa, uni tez kasalxonaga olib boring.

Oldini olish:

◆ Ich terlamaning oldini olish uchun, odam axlatining suv va ovqat-larga tushishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Shaxsiy va jamoat gigiyenasi yuzasidan 12-bobda yo'l-yo'riqlarga rioxva qiling. Hojatxona odamlar suv oladigan joydan yetarlicha uzoqda bo'lishiga e'tibor bering.


◆ Ich terlamalar ko'pincha suv toshqini va boshqa halokatlardan so'ng paydo bo'ladi. Shuning uchun, ayniqsa, bunday vaqtarda tozalilikka e'tibor berish kerak. Ichayotgan suvingiz tozaligiga e'tibor bering. Agar qishlog'ingizda ich terlama paydo bo'lса, barcha suvlar qaynatib ishlatilishi kerak. Suv yoki ovqatning infeksiyalanishi sabablarini izlang.

◆ Ich terlama tarqalishining oldini olish uchun, kasal odam alohida xonada turishi kerak. U ishlatadigan idishlardan hech kim foydalanmasligi shart. Uning axlati yondirilib tashlanishi yoki chuqr joyga ko'milishi kerak. Unga qaraydigan odamlar qo'llarini yuvib yurishlari zarur.


◆ Ich terlamadan tuzalgandan so'ng ham, ba'zi odamlar kasallikni o'zida olib yurishlari va uni tarqatishlari mumkin. Ich terlamasi bo'lgan har qanday odam shaxsiy tozalikka katta e'tibor berishi va oshxona yoki boshqa umumiy ovqatlanish joylarida ishlasligi kerak. Ich terlama mikroblarini o'zida olib yuruvchi odamlarni davolashda ampitsillin foyda qilishi mumkin.

TOSHMALI TERLAMA (TIF)


Bu kasallik ich terlamaga bir qadar o'xshash bo'lsa-da, lekin ba'zi jihatlari bilan undan farqlidir. Infeksiya mana bulaning chaqishi natijasida kelib chiqadi:



bit



kana



kalamush
burgalari

Belgilari:

- ◆ Terlama qattiq shamollahdek boshlanadi. Bir hafta yoki undan ko'proq vaqtadan so'ng et uvishibsovqotishlar, bosh og'riqlar, muskul hamda ko'krak og'riqlari paydo bo'ladi; isitma chiqadi.
- ◆ Bir necha kundan so'ng, avval qo'litiqda, so'ng tanada, keyin qo'va oyoqlarda toshma paydo bo'ladi (lekin ular yuz, qo'l yoki oyoq kaftida bo'lmaydi). Toshma juda kichik qon talashlarga o'xshaydi.
- ◆ Isitma 2 haftadan ortiq davom etadi. Terlama ko'pincha bolalar-da yengil, kattalarda esa juda og'ir kechadi. Terlamaning epidemik turi, ayniqsa, xavflidir.
- ◆ Kana yuqtirgan terlamada, u chaqqan joyda katta og'riqli yara paydo bo'ladi va uning atrofidagi limfa bezlar shishib, og'riydi.

Davolash:

- ◆ Agar siz biror kishida terlama borligini taxmin qilsangiz, shifokor maslahatini oling. Ko'pincha maxsus analizlar topshirish kerak bo'ladi.
- ◆ Kattalarga: 100 mg. li Doksitsiklin kapsulasidan 7 kun (639-bet). davomida kuniga 2 mahal bering. Levomitsetin ham yordam beradi, ammo u xavfliroqdir (639-bet).

Oldini olish:

- ◆ Tozalikka rioya qiling. Butun oilangizni mayda hashoratlardan tozalab turing.
- ◆ Itlardagi barcha kanalarni yoqoting va itlarni uyingizga qo'y mang.

- ◆ Kalamushlarni qiring. Ularni yo'qotishda mushuk yoki qopqonlar ni ishlating (zaharni emas, chunki u boshqa hayvonlar va bolalar uchun xavfli bo'lishi mumkin).
- ◆ Kalamush burgalarini yo'q qiling. O'lik kalamush larni qo'lin-giz bilan ushlamang. Burgalar sizga o'tishi mumkin. Kalamush va ularning burgalarini o'ldiriting va yondiring. Burga o'ldiruvchi dorilarni kalamushlar inlariga qo'ying.



MOXOV

Ushbu juda xavfli bo'lgan infeksion kasallik, asta-sekin, ko'pincha bir necha yillar davomida odamda rivojlana boradi. U faqatgina davolangan moxov kasalligi bor odamdan organizmning ushbu kasallikka „qarshiligi” past bo'lgan odamlarga yuqishi mumkin. Moxov ko'p uchraydigan joylarda, bolalar, ayniqsa, moxovi bor odamlar bilan yashovchi bolalar har 6-12 oyda tekshirilib turishi kerak.

Belgilari: Moxov kasalligi sezgi yo'qolishiga, hamda qo'l va oyoqlarning shol bo'lib qolishida yuz beradigan bir qancha o'zgarishlarga sabab bo'lish mumkin.


Moxovning **birin-chi belgisi** teridagi **sekin-kattayib boruvchi, qich-ishmaydigan va og'rimaydigan dog' paydo bo'lishidir.** Avvaliga dog' ichidagi sezish normal bo'lishi mumkin. Uni kuzatishni davom ettiring. Agar dog' ichida sezish kamaysa yoki yo'qolib ketsa (113-bet) bu moxov bo'lishi mumkin

Butun tanada dog'lar bor yo'qligini tekshiring ayniqsa, yuz, ko'l, bel, dumba va oyoqlarni.



och rangli
qirg'oqlari
yaxshi
ko'rinnmaydigan
dog'

Dog'lar, atrofidagi teridan farq qilib turadi, ammolar hech qachon oppoq yoki baliq tangachasiga o'xshash bo'lmaydi.



chekkalari uzuksimon
bo'lib, atrofidagi teridan
balandroq yoki bir xil
sathda bo'ladi.

Keyingi belgilari odamning ushbu kasallikka qanchalik qarshilik ko'rsata olishiga qarab har xil bo'ladi. Quyidagilarni izlang:

Hammabop Tibbiyot Qo'llanmasi 2013

- Qo'l yoki oyoqlarning jimirlashi, uvushishi yoki sezgisining yo'qolishi. Ba'zi a'zolar shaklining o'zgarib qolishi yoki dog' bor joylarda sezgi yo'qolishi.

- Ko'l va oyoqlardagi yengil quvvatsizliklanishi yoki ko'rinishining o'zgarishi.

- Teri ostidagi nervlar shishib arqonga o'xshab qoladi. Nervlarni bosganda ular og'riydi.



Rivojlangan belgilari quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:

sezish yo'qolgan
joylarning kuyib qolishi
yoki chandiqlarning
paydo bo'lishi



qoshlarning
yo'qolishi

ko'rlik



quloq yums-
hog'ining yo'g'on-
lashishi va ichining
g'adir budur bo'lishi

ba'zan burun
shaklining
o'zgarishi
kuzatiladi



qo'l yoki oyo-
qlardagi og'riqsiz
yaralar va ko'r-
nishining o'zgarishi



qo'l va oyoqlarning sholi

Moxovni davolash: Moxov tuzaladigan kasallik, ammo dorilar yillab ichilishi kerak. Eng yaxshi dori diafenilsulfon bo'lib, uni iloji bo'lsa, Rifampitsin va Klofazimin (676-bet) bilan birga iching. Agar dori qabul qilish jarayonida „moxov reaksiyasi” ya'ni isitma, toshma, og'riq, shishgan qo'l va oyoqlar yoki ko'z shikastlanishi paydo bo'lsa ham, dorini ichishni to'xtatmang ammo tibbiy yordamga murojaat qiling.

Qo'l, oyoq va ko'zlar shikastlanishining oldini olish: Moxov bilan og'riyotgan odamlarning qo'l va oyoqlaridagi katta ochiq yaralar ni kasallik keltirib chiqarmaydi. Ularning oldini olish mumkin. Bularning

sababi, sezgi yo'qolgandan so'ng, odam jarohatlanishdan saqlana olmay qoladi.


Masalan: Agar sezgilari normal ishlaydigan odam uzoq vaqt yursa va oyog'ida pufak hosil bo'lsa, u og'riydi va yurishdan to'xtaydi yoki oqsab yuradi.

Lekin moxovi bor
odamda pufak hosil
bo'lsa-da, oyoq
og'rimaydi.

Shuning uchun u
pufak yorilib, infek-
siyalangunga qadar
yurishni davom
ettiradi.



Shunda ham hech
qanday og'rini sez-
maydi va infeksiya
ichkariga kirib borib,
suyakni zararlaydi

Vaqt o'tgan sari
suyak shikastlanadi
va oyoq borgan sari
shaklini o'zgartiradi.



1. Qo'l va oyoqlaringizni kesadigan, shiladigan, qavartiradigan yoki kuydiradigan narsalardan saqlang:

Yalang oyoq yur mang, ayniqsa, o'tkir toshlar yoki tikonlar bor joyda yalang oyoq yur mang. Oyoq kiyim kiyib yuring. Oyoq tagiga va tasmalari tagiga, oyoqni g'ajimasligi uchun yumshoq qilib taglik qo'ying.



Ishlayotganda — yoki ovqat pishi-rayotganda qo'lqop kiying. **Issiq** bo'lishi mumkin bo'lgan narsani, qalin qo'lqopsiz yoki taxlangan lattasiz hech qachon ushlamang. Agar iloji bo'lsa, o'tkir yoki issiq narsalarni ushlashni talab qiluvchi ishni bajarmang. Chekmang.


2. Har kunning oxirida (xususan qattiq ishgan yoki uzoq yurgan bo'lsangiz) qo'l va oyoqlaringizni ehtirotkorlik bilan tekshiring yoki tekshirtiring. Kesilgan, ko'kargan yoki tikon kirgan joylarni izlang. Shuningdek, qo'l va oyoqlarga dog' tushgan va qizargan, issiq bo'lib turgan, shishgan yoki qavarchiy boshlagan joylarni izlang. Agar shunday joyni

Hammabop Tibbiyat Qo'llanmasi 2013

topsangiz, qo'l yoki oyoqni, to'la tuzalib ketmagunga qadar ishlatmang. Bu terining qotishiga yordam beradi va yara paydo bo'lishiga yo'l qo'ymasligi mumkin.

3. Agar ochiq yarangiz bo'lsa, batamom tuzalgunga qadar uni toza tuting va qo'l yoki oyog'ingiz bilan ko'p harakat qilmang. O'sha joyning qayta shikastlanmasligiga e'tibor bering.

4. Ko'zlarizingizni asrang, chunki ko'zlarning sezgisi yo'qolishi natijasida ko'z kam ochib-yumiladi shu sababli ko'zlar shikastlanadi va ko'rish qobiliyati zaiflashadi. Ko'zlar- ingizni toza va nam holatda tutish uchun ochib yumib turing. Agar siz ochib yumgani qiyngalsangiz, ko'zlarizingizni kuniga bir necha mahal qattiq yuming, ayniqsa chang shabada kelganda. Ko'zga oftob tushirmaydigan ko'zoynak taqing va quyoshdan saqllovchi shlyapa kiyganingiz ham ma'qul. Ko'zlarizingizni toza tuting va pashshalardan saqlang.




Agar siz ushbu aytilgan narsalarni qilsangiz va davolanishni erta boshlasangiz, **moxovdan kelib chiqadigan ko'p tana o'zgarishlarining oldini olgan bo'lasiz.**

EXINOKOKK

Exinokokk, bir qadar ko'p parazit, mayda gjijalarining bir turidir. Urg'ochi (2-7 mm) itlar (bo'rilar, tulkilar)ning organizmida yashab, ularning ichagiga tuxum qo'yadi va bu tuxumlar ularning axlati orqali tushib tuproq, suv, ko'katlar va itlarning junlarini ham ifloslaydi. Qo'y, echki, qora mol, tuyalar kabi xonaki hayvonlar yaylovdagi o'tlayotgan vaqtlarida shu qurt tuxumlarini ham o't bilan yutib yuboradi va uni tuxumlar bu hayvonlar organlarida ko'payishi va ularning ichki a'zolariga tarqalishi mumkin, lekin bu hayvonlar axlat-

lari orqali

EXINOKKOKNI
tarqatmaydi.



Odatda, bolalar juni ifloslangan itlarini erkalatib, silaganida yoki qurt tushgan hayvonning go'shtini yeganlarida yoki suvni ichganlarida infeksiyalanadilar. Odam ichagida tuhumdagisi lichinkalar qon bilan jigar, o'pka goho miya va boshqa organlarga borib, ularda pufak(kista) hosil

qiladi. Odatda kasallikning belgilari uzoq vaqtgacha namoyon bo'lmaydi va exinokokkning kistasi faqat o'sganidan so'nggina o'zini bildirishi mumkin. Bu holatda odamning qorni, jigardagi kistaning shishishi tufayli katalashadi. Bunday belgiga qayt qilish va qorindagi og'riqlar ham qo'shildi. Exinokokk kistasi o'pkada bo'lsa, bunda yo'tal (ba'zan qon aralash balg'am bilan) va ko'krak sohasida og'riq bo'lishi mumkin. Ushbu kistalar suyaklarni ham oson sindirishi mumkin yoki buyrak, o't pufagi, jinsiy a'zolarga tarqalib, ularni shikastlashi va siyidkka qon aralashishiga yoki bepushtlikka sabab bo'ladi.

Kistalar miyada bo'lsa, bosh og'riq paydo bo'ladi. Ultratovush (UZI) tekshiruv odatda Exinokokk gidativ turini aniqlay oladi, lekin boshqa turini aniqlash qiyin va odatda uning belgilari rak yoki sirroz belgilariga o'xshashdir.

Oldini olish:

- ◆ Itlar bilan o'ynamang, ayniqsa, exinokokk ko'p uchraydigan qishloq joylarda qo'ylar atrofida yuradigan itlardan ehtiyoj bo'ling. Chetdan kelib qolgan itlar o'ldirilishi kerak.
- ◆ Itlarni kushxonalardan uzoqroqda boqing. Chunki ular zararlangan go'shtni yeb, kasallanib, so'ng odamga tarqatishi mumkin.
- ◆ Suvni ichishdan avval qaynating va go'shtni iste'mol qilishdan avval yaxshilab pishiring.
- ◆ Agar siz yashaydigan joylarda exinokokk ko'p bo'lsa, itlaringizni doim Prazikvantel bilan davolab turing. Ayniqsa, itlar qo'y va qora molga yaqin yuradigan va sizning kichik bolalarining bo'lsa, shunday qiling.

Davolanish:

- ◆ Kistani olish uchun odatda operatsiya qilinadi.
- ◆ Operatsiya qilinmaydigan va kasalligi tarqalib ketgan kasallarga Albendazol (718-bet) ichish maslahat beriladi. Kattalar bu dorini 400 mg. dan bir oy davomida 2 mahal ichishi kerak, 2 hafta dam olib, so'ng davoni yana qayta boshlash zarur. Ushbu jarayon kasallikning ta'siriga qarab 1-8

Hammabop Tibbiyat Qo'llanmasi 2013

marta takrorlanadi. Prazikvantel va Mebendazolning (Vermoks, Vormizol) katta dozalari ham yordam berishi mumkin. (719-720-betlar)

O'xshash kasalliliklar. Siz ushbu jadvalga qarab o'zingizda boshlangan isitma va boshqa belgilardan o'zingizni qanday infeksiyaga chaliningizni bilib olishingiz mumkin.

Nomi	Tarqalishi	Isitma	Belgilari
Arbovirus ich terlama (Tifoid)	hashoratlar ovqat, suv	birdan boshlanadi 2 kun davomida asta ko'tarilib boradi	a'zoi badanning qattiq og'rig'i oshqozon og'rig'i, ich qotishi yoki ich ketish
toshmali terlama, (TIF)	bit va burgalar	Birdan og'riq turganidan 2 kundan so'ng	Kasal terisi sassiq bo'la-di, unda eski ho'l etik hidi kelib turadi. Tilini tashqariga chiqara olmaydi.
Rikketsioz	ko'pincha bit yoki kanalar	Tez boshlanadi, terlash	bosh og'rig'i yoki muskullarning qattiq og'rig'i
Borrelioz	bit yoki kanalar	2-6 kun oralab turadi	Quruq yo'tal va bosh og'rig'i
Leptospiroz	kemiruvchilar	bir chiqadi bir pasayadi	Ko'zlar qizarib, a'zoi-badani og'riydi.
Qu (Q) isitma	kana yoki bit	birdan	Ko'z orqasida og'riqlar paydo bo'lib, odam yorug'likka qaray olmaydi, sezuvchanlik, jigari va talog'i kattalashgan

QU(Q) ISITMA

Ushbu kasallik ob-havosi quruq iqlimlarda qo'y, echki va mol boqib, chorvachilik bilan shug'ullanadigan joylarda uchraydi. Ushbu kasallik bit, kasal odam va hayvon orqali tarqaladi yoki kasal hayvonning suti, go'shti kabi mahsulotlari orqali yuqishi ham mumkin. Ushbu odamning isitmasi chiqadi, boshining ko'z soqqasi orqasidagi qismi og'riydi. Yorug'luk ko'zni og'ritadi. Bemor juda quvvatsizlanadi. Jigari va talog'i kattalashishi mumkin.

Davolanish:

- ◆ Levomitsetin, Siproflopsatsin, Biseptol bilan Rifampin yoki Tetratsiklin ishlating (Yashil Sahifalar). Isitma odatda 4 kun ichida pasayadi.

Oldini olish:

- ◆ Sut qaynatilishi kerak.
- ◆ Kana chaqishidan saqlaning.
- ◆ O'simliklar, daraxtlar bor joylarda yurganda oyoqlaringizni himoya qiling.
- ◆ Ba'zi joylarda immunizatsiya (emlash) o'tkazilishi mumkin.

ARBOVIRUS ISITMASI

Ushbu virus qon so'radigan mayda pashshalar orqali tarqaladi. Odatda odamlar pashshalar yoki ba'zan kana chaqqanidan keyin ham kasallanadi. Bu kasallik isitma, bosh og'rig'i va muskullar og'rig'ini keltirib chiqaradi. Ba'zan odam qorni og'rib, qayt qiladi, boshi aylanadi, badaniga toshmalar toshadi, ko'z og'rishi va bo'yin limfatik bezlari shishishi mumkin. Onda sonda odamlar, miyani shikastlantiradigan ensefalit - bosh miya yalig'lanishi kasalligiga chalinishlari mumkin. Ba'zan kamqonlikka uchrashlari va shok holatiga tushishi mumkin.

Davolanish:

- ◆ Antibiotiklar yordam bermaydi.
- ◆ Aspirin yordam beradi, lekin qonash yoki ko'karish singari hodisalar kuzatilsa uni ichmagan ma'qul.

Oldini olish:

- ◆ Pashshalar ko'paygan paytda, quyosh botayotganda, tashqariga chiqmang va (pashshaxona)dan foydalaning.

LEPTOSPIROZ

Ushbu kasallikni oqmaydigan suv yaqinida yashaydigan sichqon va kalamushlar tarqatadi. Odamning birdan tana harorati ko'tariladi, ko'zları qizarib, og'riydi yoki ba'zi muskullari og'riydi. Ba'zan bularning ikkalasi birga bo'lishi ham mumkin. Bosh og'rig'i, tanglay - og'iz bo'shlig'ining tepe kismiga toshma toshishi, qayt qilish singari hodisalar ham kuzatilishi mumkin. 2 yoki 3-kuni sarg'ayish boshlanishi mumkin. Zotiljam (o'pka shamollashi), jigar, buyrak kasalliklari, meningit paydo bo'lishi va ko'z rangdor pardasi yallig'lanishi paydo bo'lishi mumkin.

Davolash:

- ◆ Penitsillin, Ampitsillin, Tetratsiklin, Doksitsiklin, Levomitsetin va Eritromitsinlar foya qilishi mumkun.
- ◆ Antibiotiklarni ichishni iloji boricha tezroq boshlash kerak.
- ◆ Davolanmasa, kasallik taxminan 10 kun davom etadi va odam nobud bo'lishi mumkin.
- ◆ Kasallikdan odam taxminan 2 oy ichida tuzaladi.

Oldini olish:

- ◆ Leptospirozi bor odamni parvarishlaganingizda ustingizga xalat kiying va yuzingizga niqob taqib oling.
- ◆ Tanadan chiqadigan narsalar (qon, yiring, qayt qilgan narsalarin-giz va boshqalar)ni sichqon va kalamushlar tegmaydigan joyga tashlang.

BORRELIOZ

Bu kasallik ba'zan janubiy O'zbekistonda (Qarshi, Navoyi, Termez, Buxoro, Samarcand) uchraydi. Spiroxetlar nomli bakteriya bilan infeksiyalangan bit yoki kananing chaqishidan kelib chiqadi. 2-12 kundan so'ng odamda qaltirash, isitma chiqish, terlash, charchash, bosh og'rig'i, umurtqa, bo'g'im va katta suyaklarning og'rishi kuzatiladi. Shuningdek, quruq yo'tal va oshqozon og'rig'i bo'lishi ham mumkin. Kasallik bir necha

kundan so'ng qaytgandek bo'ladi va so'ng yana qaytalanadi. Har bir qaytalanishi oldingiga qaraganda qisqaroq bo'ladi.

Badan sarg'ayishi (ayniqsa bit orqali yuqqan bo'lsa) va teri ostiga qon quyilishidan badanga qora va ko'k dog'li toshmalar toshishi mumkin. Bemorning boshi aylanishi va yutinishga qiynalishi yoki jigari bilan talog'i shishgan bo'lishi mumkin. Qayt qilishi ham mumkin. Ba'zan odamlar meningit, isitmadan miyaga qon quyilishi, zotiljam (o'pka shamollahshi), jigar yoki yurak shikastlanishi kabi og'ir kasalliklar bilan og'rishlari mumkin. Agar kasallik bartaraf etilmasa, ba'zan odamlar nobud bo'lishi ham mumkin. Ba'zan boshqa asoratlar, burundan qon oqishi yoki yuz bir qismining falajlanishi kuzatiladi.


Davolash:

- ◆ Doksitsiklin yoki Eritromitsin. (639-636-betlar)
- ◆ Penitsillin ham yordam berishi mumkin.
- ◆ Ba'zan davolashning birinchi soatlarida kasallar ahvoli yana ham og'irlashishi mumkin.
- ◆ Kasalga ko'p suyuqlik bering va uni yotqizib qo'ying.

Oldini olish:

- ◆ Kanalar va bitlardan saqlaning.
- ◆ Kanalarni yo'q qiling va ular chaqqan joyga yod yoki zelyonka surqang.

TOKSOPLAZMOZ



Ushbu kasallikka "protozoa" (bir hujayralik: amyoba, infuzoriya kabi tirik mavjudodlar) guruhiga kiradigan va mushuklarda yashaydigan

Hammabop Tibbiyat Qo'llanmasi 2013

mayda parazitlar sabab bo'ladi. Bu kasallik, homiladorlar uchun ayniqsa, xavflidir, chunki u hali tug'ilmagan bolaning aqliy zaif bo'lishiga olib kelishi mumkin.

Odamlar yaxshi pishirilmagan go'sht, ayniqsa infeksiya tushgan qo'y go'shtini iste'mol qilish orqali ushbu kasallik bilan kasallanadilar. Qassob va o'z mushuklarini tozalab, yuvintiradigan odamlar ham kasallanishlari mumkin.

Hech qanday belgi bo'lmasisligi yoki qattiq charchash, taloq, limfa tugunlari kattalashuvi va harorat ko'tarilishi singari hodisalr kuzatilishi mumkin.

Odam 2-10 hafta davomida juda uyquchan bo'lishi mumkin. Bemor homilador yoki sog'ligi zaif kishi bo'lmasa, u maxsus davolarsiz o'zi tuzalib ketadi.

Biroq, immuniteti zaif bo'lgan, OITS, sil, diabetga chalingan yoki ovqatga yolchimay yurgan odamda kishini nobud qilishi mumkin bo'lgan ensefalit boshlanishi mumkin. Homiladorligida bu kasallik bilan og'igan ayollarni bolalari aqli zaifroq bo'lishi mumkin. Lekin u, immuniteti normal bo'lgan ayollarning kelajak homilasiga ta'sir qilmaydi. Qon analizlari odamning kasalligini ko'rsatadi, lekin kasal o'zini yaxshi his qilsa maxsus davolanishning keragi yo'q. Toksoplazmoz takror bola tushishiga hech qachon sabab bo'lmaydi.

Davolanish:

- ◆ Pirimetamin (Xloridin) bilan Sulfazin (Sulfadiazin) birgalikda ichiliishi kerak.

Oldini olish:

- ◆ Go'shtni yaxshilab pishiring.
- ◆ Homilador ayollar mushuklar va boshqa iflos narsalardan uzoqroqda bo'lishlari kerak.

TULYAREMIYA

Kanasi bor quyon, olmaxon, sichqon kabi kichkina hayvonlar orasida ko'proq bo'ladi gan bu kasallik odamda ham uchrab turadi. 1-10 kundan so'ng odamda harorat ko'tarilishi,sovqotish, bosh og'rig'i, kuchsizlanish va butun tana bo'y lab muskul og'rig'i singari hodisalar kuzatiladi. Isitma doimiy yoki bir chiqib, bir tushib turadigan (notekis) bo'lishi mumkin. Ba'zan hayvon tishlagan yoki kana chaqqan joyda oldin toshmalar paydo bo'ladi, so'ng ular kichik yaralarga aylanadi. Butun tana bo'y lab limfa tugunlarining shishishi mumkin. Ba'zan men ingitlar paydo bo'ladi. Tulyaremiya ba'zan ich ter lama yoki zotiljam(pnevmoniya) kabi kasalliklarga olib kelishi mumkin.



Davolash:

- ◆ Streptomitsin yoki Gentamitsin ishlatalishi mumkin.
- ◆ Agar meningit taxmin qilingan bo'lsa, Levomitsetin (639-bet) qo'shing.

Oldini olish:

- ◆ Yovvoyi hayvonlarning terisini shilayotganda qo'lqop, niqob va ko'zni himoyalovchi ko'zoynaklardan foydalaning.
- ◆ Kana chaqishidan saqlaydigan kiyimlarni kiying.
- ◆ Infeksiyalangan odam boshqa odamga infeksiyani yuqtirmaydi, shuning uchun bemorlarni maxsus joyda saqlash zarur emas.